

**MAMLAKATIMIZ PROFESSIONAL FUTBOLIDA FUTBOLCHINING IMIDJ  
HUQUQLARI VA ULARNI TIJORATLASHTIRISHNING AYRIM MASALALARI****Oybekxon Ibrohimxonov***Toshkent davlat yuridik universiteti mustaqil izlanuvchisi**oybekibroximhonov84@gmail.com*

**Annotatsiya:** *Mazkur maqolada professional futbolchilarning imidj huquqlari, ushbu huquqlarning huquqiy tabiati, ular asosida shakllanuvchi tijoriy munosabatlar va O'zbekiston futbol tizimida mavjud muammolar yoritiladi. Shuningdek, xorijiy tajriba bilan qiyosiy tahlil asosida mamlakatimiz futbolchilari imidj huquqlarini samarali himoya qilish va monetizatsiya (daromodi) qilish bo'yicha takliflar beriladi.*

**Kalit so'zlar:** *professional futbol, futbolchi, imidj huquqi, shaxsiy nomulkiy huquq, fuqarolik kodeksi, mehnat kodeksi.*

Zamonaviy sport, ayniqsa futbol nafaqat ommaviy sport turi, balki yirik iqtisodiy sanoatga aylangan sohaga aylanib bormoqda. Bugungi kunda futbolchilar — ayniqsa, professional darajadagilar — shunchaki sportchi emas, balki o'z imidji, brendi, obro'-e'tibori orqali tijorat imkoniyatlari yaratuvchi shaxslardir. Futbolchining imidji — uning tashqi ko'rinishi, ismi, familiyasi, o'yin uslubi, hatto xulq-atvori orqali shakllanadi va ko'p hollarda tijorat vositasiga aylanadi.

So'nggi yillarda O'zbekiston professional futboli jadal sur'atlar bilan rivojlanmoqda. Bu jarayonda futbolchilarning faqatgina sport maydonidagi emas, balki ijtimoiy va iqtisodiy hayotdagi roli ham ortib bormoqda. Shu bilan birga, professional futbolchilar va futbol klublarining imidj huquqlari (shaxsiylik, nom-sharaf, surat, ovoz va boshqalar) ularni tijoratlashtirish, ya'ni marketing, reklama va media vositalari orqali daromad manbai sifatida foydalanish imkoniyatlarini yaratmoqda. Biroq bu soha mamlakatimizda hali to'liq huquqiy tartibga solinmagan.

Umuman olganda, imidj huquqi – bu jismoniy shaxsning tashqi ko'rinishi, ovozi, ismi, familiyasi, nomi, qiyofasi kabi shaxsiy belgilarini qonuniy himoya qilishga oid huquqidir. Bu huquq esa o'z navbatida fuqarolik qonunchiligimizda “shaxsiy nomulkiy (nomoddiy) huquq” sifatida qaraladi<sup>29</sup>. Bu degani, soha vakilini bunga bo'lgan huquqini yanada aniq va fuqarolik-huquqiy tartibga solinishi kerak. Chunki, bu huquq ham, fuqarolik qonunchiligini obyekt sifatida baholanadi.

Endi, professional sportchilarda imidj huquqi ularning mashhurligi ortishi bilan tijorat qiymatga ega bo'ladi. Masalan, futbolchining ismi yoki surati mahsulotga qo'yilishi, reklama roliklarida qatnashuvi, videolavhalarda ovozidan foydalanish kabilar orqali daromad olinadi. Xo'sh, hozirda bu borada mamlakatimizda ishlar qay holatda, birorta sportchining imidj huquqi huquqiy tartibga solinmoqdami...

<sup>29</sup> <https://lex.uz/docs/-111189>

Lekin, zamonaviy futbol va uni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash orqali so'nggi yillarda o'zining top darajasiga yanada chiqmoqda. Ayniqsa, uzoq kutilgan tarixiy voqea O'zbekiston futbol tarixida birinchi bor -xalqaro darajadagi turnir Jahon chempionatiga chiqqani bo'ldi. Bu kimning harakati bo'lishi mumkin, albatta davlatning bu sohani qo'llab-quvvatlashi va yosh avlodni barkamol qilib tarbiyalash natijasidir. Endi, futbol jahon arenasiga chiqishi ortidan futbolchilarning ham jahonga mashhur yulduzlar qatori ularning ham yangi imidjlari paydo bo'ladi...

Aynan biz, ushbu ilmiy maqolamiz orqali O'zbekiston professional futbolida futbolchining imidj huquqlarini himoyasi va uning moliyalashtirish masalasida ayrim fikrlarni yuritib, takliflarni ishlab chiqamiz.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaning 13-moddasida<sup>30</sup> O'zbekiston Respublikasida demokratiya umuminsoniy prinsiplarga asoslanadi, ularga ko'ra inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmati va boshqa ajralmas huquqlari oliy qadriyat hisoblanishi, 26-moddada<sup>31</sup> inson sha'ni, qadr-qimmati daxlsizligi huquqi ega ekanligi, 31-moddada<sup>32</sup> har bir inson shaxsiy hayotining daxlsizligi, shaxsiy va oilaviy sirga ega bo'lish, o'z sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilish huquqiga ega ekanligi, 60-moddada<sup>33</sup> esa fuqarolarning burchlari sifatida Konstitutsiya va qonunlarga rioya etishga, boshqa insonlarning huquqlari, erkinliklari, sha'ni va qadr-qimmatini hurmat qilishga majburlar.

Yuqoridagi moddalarning barchasi bir-biriga bog'langan bo'lib, O'zbekiston Respublikasida inson huquqlari ustuvorligini, har bir insonning sha'ni, erkinligi va daxlsizligini ta'minlashga qaratilgan. Shu bilan birga, fuqarolarning nafaqat huquqlari, balki jamiyat oldidagi burchlari ham muhim ekani ta'kidlanadi. Futbolchi ham, boshqa fuqarolar kabi, inson sifatida davlat tomonidan himoya qilinadigan oliy qadriyat sifatida baholanadigan bir nodavlat notijorat tashkilotning mahsulidir. Uning faoliyatidagi imidji (ya'ni nomi, tashqi ko'rinishi, obro'si, sportdagi yutuqlari) ham bevosita uning shaxsiga tegishli qadriyat bo'lib, ruxsatsiz foydalanish mumkin emas. Misol: bir sport kompaniyasi futbolchining roziligisiz uning suratidan reklama uchun foydalansa – bu Konstitutsiyadagi "inson oliy qadriyat" tamoyiliga zid bo'ladi. Imidj huquqi buziladi degani. Yoki boshqa misol. Futbolchining sportdagi muvaffaqiyatlari, jamoat oldidagi obro'si uning sha'nining bir qismidir. Agar futbolchi ommaviy axborot vositalarida yoki ijtimoiy tarmoqlarda nohaq tanqid qilinsa, haqorat qilinsa yoki noto'g'ri kontekstda reklamalarda ko'rsatilsa, bu uning sha'ni va qadr-qimmatini toptaydi. Misol: ijtimoiy tarmoq blogeri futbolchining montaj qilingan videosini e'lon qilib, uni kamsituvchi tarzda tasvirlasa – bu 26-moddaga zid va imidj huquqining buzilishi hisoblanadi.

Bilamizki, O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksining 100-moddasida sha'n, qadr-qimmat va ishchanlik obro'sini himoya qilishga oid modda berilgan<sup>34</sup>. Bu moddani imidj huquqi bilan ifodalasak bo'ladi. Unga ko'ra, fuqaro o'zining sha'ni, qadr-

<sup>30</sup> <https://lex.uz/docs/-6445145#-6445237>

<sup>31</sup> <https://lex.uz/docs/-6445145#-6445428>

<sup>32</sup> <https://lex.uz/docs/-6445145#-6445529>

<sup>33</sup> <https://lex.uz/docs/-6445145#-6445660>

<sup>34</sup> <https://lex.uz/docs/-111189#-152927>

qimmati yoki ishchanlik obro'siga putur yetkazuvchi ma'lumotlar yuzasidan, basharti bunday ma'lumotlarni tarqatgan shaxs ularning haqiqatga to'g'ri kelishini isbotlay olmasa, sud yo'li bilan raddiya talab qilishga haqli. Manfaaddor shaxslarning talabiga ko'ra fuqaroning sha'ni va qadr-qimmatini uning vafotidan keyin ham himoya qilishga yo'l qo'yiladi. Basharti, fuqaroning sha'ni, qadr-qimmati yoki ishchanlik obro'siga putur yetkazuvchi ma'lumotlar ommaviy-axborot vositalarida tarqatilgan bo'lsa, ayni shu ommaviy-axborot vositalarida raddiya berilishi lozim. Basharti, bunday ma'lumotlar tashkilotdan olingan hujjatda uchrasa, bunday hujjat almashtirilishi yoki chaqirib olinishi kerak. Boshqa hollarda raddiya berish tartibi sud tomonidan belgilanishi aytilgan.

Shuningdek, fuqaro ommaviy axborot vositalarida uning huquqlari yoki qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini kamsituvchi ma'lumotlar e'lon qilinganda u ayni o'sha ommaviy axborot vositalari orqali chiqib, o'zini himoya qilish huquqiga ega. Basharti, sudning hal qiluv qarori bajarilmasa, sud qoidabuzarga qonunchilikda belgilangan miqdorda va tartibda undiriladigan jarima solishga haqlidir. Jarimani to'lash qoidabuzarni sudning hal qiluv qarorida nazarda tutilgan harakatlarni bajarish vazifasidan ozod etmaydi. O'zining sha'ni, qadr-qimmati yoki ishchanlik obro'siga putur yetkazuvchi ma'lumotlar tarqatilgan fuqaro bunday ma'lumotlar rad etilishi bilan bir qatorda ularni tarqatish oqibatida yetkazilgan zararlar va ma'naviy ziyonning o'rnini qoplashni talab qilishga haqlidir, kabi qoidalar mustahkamlangani fuqaro sifatida barcha soha vakillari qatori, futbolchiga ham tegishli normadir. Bu normadan bemalol sportchi o'zining imidj huquqiga oid munosabatlarni tartibga solishda foydalanishini mumkin.

Aslida ham fuqarolik qonunchiligini tahlil qilsak, fuqarolik huquqi bilan tartibga solinadigan munosabatlarga ham bemalol imidj huquqini ham kiritsak bo'ladi. Yuqorida aytilganidek, milliy qonunchilikda imidj huquqining aniq ta'rifi yo'q, sportchilarning imidj huquqlari va tijorat huquqlari o'rtasidagi farq aniq belgilab berilmagan, natijada hozirgi klublar va futbolchilar o'rtasida tuziladigan mehnat shartnomalari bo'ladimi yoki boshqa tijoratchi kompaniya va futbolchi o'rtasidagi xaq evaziga xizmat ko'rsatish (reklama) shartnomasi bo'ladimi bu huquqni qanday boshqarish kerakligi ochiq qolmoqda...

Jahon tajribasida, ayniqsa Angliya, Ispaniya va Germaniya yoxud Braziliya kabi davlatlarda futbolchilarning imidj huquqlari mustaqil daromad manbai sifatida yuritiladi. Ularda, "Image rights contract" (imidj huquqi shartnomasi) tuziladi va futbolchining imidji mustaqil kompaniya yoki agentlik tomonidan boshqariladi, tushgan daromadlar soliq bazasiga alohida olinadi. O'zbekistonda bu soha endi-endi shakllanmoqda. Ayrim klublar futbolchilarning reklama huquqlarini o'ziga olishga harakat qiladi, lekin bu amalda ko'plab huquqiy muammolarni yuzaga keltiradi.

Dastlab aynan futbolchilarda bu kabi huquq 1990-yillarda o'yinchilar shartnomalarining oddiy tarkibiy qismi bo'lib, ularni maydondan tashqari yutuqlari uchun mukofotlash uchun mo'ljallangan. O'shandan beri ular juda murakkab bo'lib qoladi. Amerikalik aktyor Nik Xarris tushuntirganidek, imidj huquqlari hozir shunchalik

murakkabki, ular soliq imtiyozlarini qayta tuzishga, muvaffaqiyatsiz transferlarga va hattoki ba'zi mashhur o'yinchilar uchun qamoq jazosiga olib keldi.

Hozirda esa ko'plab mashhur futbolchilarda bu kabi shartnomalarga ega. Masalan, braziliya forvardi Neymarning imidj huquqlarini olaylik. Uning imidjlik huquqiga "NRSport" egalik qiladi, ya'ni imij huquqlarini nazorat qiluvchi va uning agenti sifatida ishlaydigan NR agentligi<sup>35</sup>, argentina yulduzi Messining bu kabi huquqlari uning akasi tomonidan boshqariladigan Messi Foundationga tegishli ekanligi<sup>36</sup> va boshqa ko'plab misollar keltirish mumkin.

Mamlakatimiz professional futbolida fuqarolik-huquqiy muammolar va huquqiy bo'shliqlar mavjud bo'lib, xalqaro standartga ega bo'lish uchun quyidagi ishlarni ham ko'rib chiqish zarur. Masalan, professional futbol komandalari (masalan, Bunyodkor PFK) bilan futbolchi o'rtasida rasmiylashtiriladigan mehnat shartnomalarida imidj huquqlarining aniq belgilanmasligi, futbolchining roziligisiz reklamada qo'llanilishi, daromadlarning soliqdan yashirilish holatlari, yosh futbolchilarning huquqiy savodxonligi yetishmasligi, professional klub va futbolchi o'rtasidagi huquqiy nizolarning ko'payishi, ayniqsa yosh senzi bo'yicha futbolchining yoshi kichraytirib ko'rsatilishi yuqorida aytilgan kamchiliklarni yuzaga keltirmoqda.

Yaqin kelajakda, davlat tomonidan, shaxsan Prezident tomonidan futbol sohasiga e'tobor qaratilayotgani sabab maxsus normativ-huquqiy hujjat qabul qilish, bu borada "Professional sportchilarning imidj huquqlari to'g'risida"gi qonun ishlab chiqilishi juda ham muhim. Ushbu hujjat orqali O'zbekiston futbol federatsiyasi va Professional futbol ligasi tomonidan namunaviy shartnomalarga imidj huquqlariga oid bandlar kiritilishi maqsadga muvofiq. Shuningdek, huquqiy savodxonlikni oshirish maqsadida futbolchilar, agentlar va klublar uchun seminar-treninglar tashkil etish, soliq tizimida imidj huquqlaridan keladigan daromadlar alohida tarzda ko'rsatilishi va shaffof yuritilishi kerak.

Mamlakatimiz professional futbolida imidj huquqlari va ularni tijoratlashtirish masalasi – bu nafaqat sport, balki iqtisodiy va huquqiy jihatdan ham dolzarb masala hisoblanadi. Ushbu huquqiy institutni rivojlantirish, tartibga solish va xalqaro tajribani joriy etish orqali futbolchilarning huquqlarini himoya qilish va sport sanoatini rivojlantirish mumkin.

Demak, professional futbolda futbolchining imidj huquqi – bu shaxsning qiyofasi, ovozi, ismi, familiyasi, tashqi ko'rinishi, harakatlari va boshqa shaxsiy belgilari orqali uni aniqlash va uni tijorat maqsadlarida ishlatish huquqidir. Bu huquq

Imidj huquqining tijoratlashtirilishidagi huquqiy ziddiyatlar bo'lib, odatda, professional futbolchilar klub bilan shartnoma tuzadi. Amalda esa ko'plab klublar o'z futbolchilarining imidj huquqlarini cheklashga harakat qilishmoqda, masalan, klub o'z ruxsatisiz reklama takliflarini rad qilishi, klub futbolchining suratidan tijorat maqsadida foydalanadi, lekin daromad ulushini taqsimlamasligi, shartnomalarda "imidj" so'ziga oid

<sup>35</sup> <https://www.insideworldfootball.com/2019/09/06/unfinished-business-neymar-back-barcelona-christmas/>

<sup>36</sup> [https://www.tntsports.co.uk/football/liga/2017-2018/bartomeu-says-messi-s-new-contract-has-been-signed-by-his-father\\_sto6320122/story.shtml](https://www.tntsports.co.uk/football/liga/2017-2018/bartomeu-says-messi-s-new-contract-has-been-signed-by-his-father_sto6320122/story.shtml)

band mavjud emasligi yoki umuman ko'zda tutilmasligi va hokazo....Bu esa shaxsiy huquq buzilishi va fuqarolik-huquqiy nizolarga olib keladi.

Mamlakatimiz professional futbolida imidj huquqlari nafaqat futbolchilar shaxsiy huquqi sifatida, balki iqtisodiy rivojlanish, sport marketingi va shaffof daromad manbai sifatida e'tiborga loyiqdir. Ushbu huquqning aniq tartibga solinishi, sportchilarning ijtimoiy himoyasini ta'minlash, iqtisodiy faoliyatning shaffofligini kuchaytiradi va professional futbol tizimini huquqiy jihatdan mustahkamlashga xizmat qiladi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:**

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.
2. O'zbekiston Respublikasi Mehnat Kodeksi.
3. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksi.
4. <https://www.academia.edu/RegisterToDownload/academicWelcomeFlow/RelatedWorks?auto=download>
5. <https://www.insideworldfootball.com/2019/09/06/unfinished-business-neymar-back-barcelona-christmas/>
6. [https://www.tntsports.co.uk/football/liga/2017-2018/bartomeu-says-messi-s-new-contract-has-been-signed-by-his-father\\_sto6320122/story.shtml](https://www.tntsports.co.uk/football/liga/2017-2018/bartomeu-says-messi-s-new-contract-has-been-signed-by-his-father_sto6320122/story.shtml)